

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-2/4
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Kamalova A.I. The uniqueness of the artistic interpretation of time, space in a creative approach to tradition	123
Karabaeva B.B. The impact of typological differences on the conceptualization of perception in english and uzbek	126
Karimova D.H., Jumayev A.A. Aka-uka Grimm ertaklarining bevosita va bilvosita o'zbekcha tarjima variantlari xususida	129
Karimova Z.G'. Turli tizimli tillarda modal so'zlarning lingvistik xususiyatlari	133
Kasimova N.F. Translation as a cognitive process	136
Kayumova Sh.K. O'zbek va ingliz tillarida "ko'l" nomlari bilan bog'liq maqollarning leksik-semantik xususiyatlari	138
Khabibullayeva G.N. Jadidlar nasriy asarlarida marosim va urf-odat bilan bog'liq etnografizmlar	141
Khan A., Yorova S.K. Clinical terminology. General idea concerning clinical terminology. Word-formation greek suffixes and prefixes	144
Khasanov M.A. A comparative-typological analysis of morphonological alternations in english, uzbek, and russian	146
Kozieva I.K. Russian anthroponymy	150
Kurbanova Z.O. Paremiyalarning milliy-madaniy o'ziga xosligi to'g'risida	154
Madaliyeva D.B. Sociolinguistic aspects of criticism and praise in english	156
Majidova Sh.K. Surxondaryo toponimlari tarkibida qo'llanuvchi so'zlar	158
Mamadaliyeva H.B. Contrastive analysis of paremological units with the concept "native country" in english and uzbek languages	161
Mamajonova M.M. O'zbek tilshunosligida juft so'zlar talqini va tadqiqi	163
Mamataliyeva N.X. Ingliz va o'zbek tillarida tez aytishlarning lingvopragmatik tahlili	167
Mardonov M.S. Amerika va o'zbek latifalarining madaniy farqlari va latifalarning janr tabiati	169
Masharipova F.J., Raximova R.M. Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishda vyotskiyning zpd va scaffolding yondashuvlari	172
Matkarimova G.A. Ingliz tilida metonimiya tamoyillariga asosan nomlangan fitonimlar	178
Matnazarova S. Hayot falsafasi – shoir estetik konsepsiyasi asosi	181
Matyakubov X.X. O'zbek va ingliz toponimlari etimologiyasidagi o'xshashliklar va farqlar	184
Mavlonova M.D. Axborot texnologiyalari sohasida o'zlashmalar qo'llanilishidagi muammolar	188
Maxmudova M.M. S.S.Buxoriy va Y.V.Gyote ijodidagi ruhiy bog'liqlik va Y.V.Gyote asarlari S.S.Buxoriy talqinida	190
Merganova N.M. Germaniyada migratsiyaning nemis tili rivojlanishiga ta'siri	193
Mirsanova M.X. Sarguzasht-fantastik asarlarning janr imkoniyatlari	195
Mukhtarova M. The role of english in Uzbekistan's globalization	198
Muratxodjayeva F.X. Kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasining nazariy tahlili	201
Musayev A.S. Xurjun so'zi- arxaiik so'zmi?	205
Mustafayev Sh.B. Zamonaviy jamiyatda virtual muloqot: o'ziga xosliklar va ta'sirlar	208
Musurmonqulov A. O'zbek tili uyadosh so'zlarini semantik maydon asosida tasniflash	211
Najmiddinov M. Formation of a synthetic words expressing action and state in the uzbek language and their expression in the thesaurus	214
Nasirdinova O.D. Ortirma nisbat shakllarining lingvistik ilmiy matnlarda qo'llanish darajasi	219
Nazimova H. Xalq o'g'zaki ijodida "dev" va "yalmog'iz" obrazlarining genezisiga doir nazariy qarashlar talqini	223
Niyozova Sh.T. The place of contrastive linguistics in the paradigm of linguistic sciences	225
Nizomova T.J. Sud diskursi tadqiqi va uning lingvistik xususiyatlari	230
Nurmatov Y.I. An'anaviy Xitoy tabobati atamalarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar	233
Otaqulova S.F. Faxriya genezesi va nazariy asoslari	236
O'ngboyev R.M. "Yusufbek" dostonidagi antroponimlarning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari	239
Qilichova E.X. Fizikaga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari: ko'p ma'nolilik, sinonimiya va leksik o'zgarishlar misolida	242
Qobilova N.S., Fayzullayeva N.S. Til evolyutsiyasi va tejamlilik tamoyili	245

ZAMONAVIY JAMIYATDA VIRTUAL MULOQOT: O'ZIGA XOSLIKLAR VA TA'SIRLAR

Sh.B. Mustafayev, o'qituvchi, mustaqil izlanuvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy, psixologik va madaniy ta'sirlari o'rganilgan. An'anaviy muloqot va virtual muloqot o'rtasidagi farqlar, shuningdek, virtual muloqotning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Ushbu ishda virtual muloqotning yangi shakllari, xususan, onlayn ta'lim, kiberbulling, va sun'iy intellekt asosidagi aloqalar kabi zamonaviy muammolar yoritilgan. Maqola, muloqotning bu yangi shakllarini psixologik va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, an'anaviy muloqot, psixologik ta'sir, ijtimoiy dinamikalar, diskurs.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности виртуального общения в современном обществе и его социальные, психологические и культурные последствия. Анализируются различия между традиционным и виртуальным общением, а также преимущества и недостатки виртуального общения. В работе рассматриваются новые формы виртуального общения, такие как онлайн-обучение, кибербуллинг и коммуникация с использованием искусственного интеллекта. Цель статьи — анализировать эти новые формы общения с психологической и лингвистической точек зрения.

Ключевые слова: виртуальное общение, традиционное общение, психологическое влияние, социальная динамика, дискурс.

Abstract. This article explores the unique features of virtual communication in modern society and its social, psychological, and cultural impacts. It analyzes the differences between traditional and virtual communication, as well as the advantages and disadvantages of virtual communication. Furthermore, the paper addresses emerging issues in virtual communication, such as online education, cyberbullying, and artificial intelligence-based interactions. The article aims to examine these new forms of communication from psychological and linguistic perspectives.

Key words: virtual communication, traditional communication, psychological impact, social dynamics, discourse.

Muloqot — insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy, psixologik va madaniy jarayonlarning asosi hisoblanadi. Yuzma-yuz muloqotdan virtual aloqa muhitiga o'tish bugungi jamiyat hayotining asosiy o'zgarishlaridan biridir. Ijtimoiy ahamiyatining yuqoriligi sabab insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa hamda o'zaro ta'sir muammosi ko'plab turli fan sohalari olimlarini o'ziga jalb etib kelmoqda, negaki o'zining ko'plab shakllari (verbal, nonverbal), turlari (rasmiy, norasmiy va b.) sabab muloqot inson jamiyati xususiyatlarini kengroq ochib beradi. Muloqotning sotsiologik jihati jamiyat va ijtimoiy guruhlar doirasida amalga oshadi. Bu nuqtai nazardan muloqot ijtimoiy rol va maqomga bog'liq bo'lib, u madaniyat, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar orqali boshqariladi. Masalan, jamiyatda ijtimoiy rolga ega shaxsning muloqot uslubi uning maqomidan kelib chiqib o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, muloqot jarayoni turli madaniyatlardagi an'analar va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u madaniyatlararo muloqotda paydo bo'ladigan muammolarni ham o'rganishni talab etadi.

Hozirgi davrda muloqot masalasi nafaqat insonlarning yuzma-yuz aloqasi doirasida, balki texnologiyalar orqali amalga oshadigan virtual muloqot doirasida ham keng tadqiq etilmoqda. Virtual muloqot, ya'ni raqamli vositalar orqali amalga oshadigan aloqa, an'anaviy muloqotdan farq qilib, ko'proq global miqyosda amalga oshadi va vaqt-makon cheklovlarini yengadi. Bu esa muloqotning doirasini kengaytirib, ijtimoiy va madaniy integratsiyani mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, virtual muloqot anonimlik, emotsional erkinlik va moslashuvchanlik kabi yangi xususiyatlarni taqdim etadi, bu esa zamonaviy jamiyatdagi muloqot shakllariga yangi ta'sirlar kiritmoqda.

Muloqotning turli jihatlarini va shakllari uning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi va inson jamiyati rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, muloqotni turli fanlar, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, lingvistika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, uning chuqur mohiyatini va zamonaviy jamiyatga ta'sirini tushunishda muhimdir.

Muloqot muammosi ustidagi intensiv tadqiqotlar izlanuvchilar orasida “muloqot” tushunchasining ta'rifini aniqlash borasida turli-tuman nuqtai-nazar, qarashlar, ko'plab bahslar keltirib chiqardi. Muloqot ta'rifi xususida rus tilida yozilgan adabiyotlarda o'nlab [1], xorijiy adabiyotlarda yuztacha [2] va o'zbek adabiyotida bir nechta [3] ta'riflarni uchratish mumkin. Ta'riflar turli bo'lishiga qaramasdan ularning har birida asosiy tushuncha insonlarning mehnat faoliyati davomida yuzaga keluvchi o'zaro ta'sir va o'zaro harakatga borib taqaladi. Ya'ni, muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan kelib chiquvchi, shaxslararo munosabatni rivojlantirishda yordam beruvchi jarayondir [4]. Muloqot va faoliyat birligi haqidagi farazlarga ko'ra, muloqot va faoliyat “toifa-tur” holatida joylashgan inson ijtimoiy borligining ikki jihati sifatida ko'riladi, ya'ni muloqot bir faoliyat turi sifatida ko'riladi [5].

Yangi information texnologiyalarning kirib kelishi bilan izlanuvchilar, fanning turli sohalari vakillari va tadqiqotchilar “noreal, dasturiy muhitga aloqador, dasturiy muhitda yaratilgan” [6] muloqotning tushunchasi, o'ziga xosliklari va ijtimoiy hayotdagi qo'llanilishi ustida ishlashni boshladilar. Bu muloqotning yangi turi hisoblangan “virtual muloqot” edi. Virtual muloqot – bu raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan aloqa jarayoni bo'lib, u insonlarning ijtimoiy va madaniy o'zaro ta'sirini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu tushuncha nafaqat texnologik imkoniyatlarni, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Virtual muloqot an'anaviy yuzma-yuz muloqotdan farqli ravishda, asosan raqamli platformalar – ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta, videokonferensiyalar va onlayn forumlar orqali olib boriladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli yaralgan kommunikativ muhit muloqotning barcha jabhalariga ta'sir o'tkazmoqda va shu bilan birga matning ushbu muhitga yuklanganligini bildiruvchi “kompyuter diskurs”, “elektron diskurs”, “internet diskurs”, “tarmoq diskursi”, “virtual diskurs”, “virtual muloqot”, “onlayn muloqot”, “kompyuter muloqot” kabi yangidan yangi terminlar paydo bo'lmoqda.

Hozirda “diskurs” termining lingvistika fanida turli ta'riflari bor, chunki uning tushunchasi aniqlash borasida ko'plab yondashuvlar mavjud (rasmiy-strukturali, sotsiolingvistik, pragmlingvistik, tanqidiy va b.). Diskursni o'rganishdagi turli yondashuvlarning mavjudligi “diskurs analizi – bu lingvistika, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, stilistika va falsafa tutashuvida joylashgan ilmning umumkasbiy sohasi” bilan izohlanadi [7]. Bizning ishimizda diskurs til tadqiqotining sotsiolingvistik yondashuvi tarafdin talqin qilinadi, ya'ni bunda tilning jamiyat bilan har qanday o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi: til va madaniyat, til va millat, til va siyosat, til va ommaviy kommunikatsiya, til va shaxs va v.k.

Yuqorida keltirib o'tilgan virtual muloqot terminining sinonimik qatori ko'rinishidan bir ma'noni bildirishi mumkindek tuyulsada, aslida ular o'rtasida ba'zi farqlar mavjud. “Kompyuter diskursi” va “elektron diskurs” elektron aloqa vositalari vositasida muloqot vaziyatiga cho'mgan matnni anglatadi. “Internet diskurs” bilan global tarmoqdagi muloqot, “tarmoq diskursi” bilan esa nafaqat Internetda, balki mahalliy tarmoqlardagi muloqot tushuniladi. Bizning o'rganish ob'yektimiz hisoblangan virtual muloqot virtual reallik holatida yuzaga keladigan muloqotni o'z ichiga oladi. Bizning nazarimizda, virtual muloqot bu qolgan terminlarga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, har qanday virtual muhitdagi kommunikatsiyani nazarda tutadi. Negaki raqamli texnologiyalar orqali amalga oshuvchi har qanday kommunikatsiya virtuallik asosida amalga oshadi.

Virtual muloqotning ajralib turishi haqida gapirar ekanmiz, uni real muloqot bilan ham taqqoslab ko'rishimiz kerak. Bu holatda ularning quyidagi xususiyatlarini bir-biriga qarshi qo'yish o'rinli bo'ladi: “material-ideal”, “faktual-potensial”, “lokal-global”, “haqiqiylik-yasamalik”, “identifikatsiyalangan-anonim”, “ratsional-emotsional”, “ierarxik-mozaiik”, “sinxron-asinxron”, “cheklangan noverbal kommunikatsiya”, “ma'lumot manbasining aniqligi”, “hamkorlik va ishonch”, “kiberbulling xavfi”. Ushbu xususiyatlarni taqqoslay turib, biz quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin: reallik sezgi organlari orqali his qilinishi mumkin, virtuallik esa inson ongidagina reallik

kasb etadi; reallik – bu fakt, haqiqatda bor, virtuallik esa faqat shunday his uyg'otadi; real muloqotda faqatgina jismonan sizga yaqin suxbatdosh bilan muloqot qilish mumkin, virtual muloqot esa makon tanlamaydi; reallik o'zgarmas, turg'undir, virtuallik esa yasama; real muloqotda taraflar bir-birini jismon ko'rishlari mumkin, virtual muloqotda esa foydalanuvchilar anonim holatda muloqotga kirishishlari ham mumkin; real muloqotda biz ratsionalmiz, ya'ni muloqot davomida o'ylaymiz, rejalashtiramiz, virtual muloqotda o'zimizni emotsional tutishimiz mumkin, ya'ni unda qo'rquv yo'qoladi; struktura jihatidan esa real muloqot ierarxikdir, virtual muloqot esa mozaikdir [8]. Bundan tashqari, virtual muloqotda vaqt omili muhim rol o'ynab, noverbal kommunikatsiya cheklangan bo'ladi. Shuningdek, virtual muloqotda ma'lumot manbasini aniqlash qiyinroq bo'lishi va kiberbulling xavfi yuqori ekanligini unutmasligimiz kerak. Real muloqotda vaqt ketma-ketligi aniq belgilangan bo'lsa, virtual muloqotda vaqt zonalar va kechikishlar tufayli bu ketma-ketlik buzilishi mumkin. Masalan, onlayn forumlarda javoblar darhol berilishi shart emas. Real muloqotda imo-ishora, mimika, intonatsiya kabi noverbal omillar muhim rol o'ynaydi. Virtual muloqotda esa bu omillar cheklangan bo'lib, emoji va stikerlar orqali ifoda etiladi. Real muloqotda ma'lumot manbasini aniqlash osonroq bo'lsa, virtual muloqotda esa dezinformatsiya va "fake news" tarqalishi xavfi yuqori. Real muloqotda hamkorlik va ishonch o'rnatish osonroq bo'lsa, virtual muloqotda bu jarayon uzoqroq va murakkabroq bo'lishi mumkin. Virtual muloqotda anonimlik tufayli kiberbulling va toksik muhit vujudga kelishi mumkin, bu esa real muloqotda kamroq uchraydi.

Virtual muloqot real yuzma-yuz muloqotdan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Quyida ushbu ikki muloqot shaklini taqqoslash keltirilgan:

Jihatlar	An'anaviy muloqot	Virtual muloqot
Makonga bog'liqlik	Joy va vaqt cheklangan	Global va makondan xoli
Identifikatsiya	Shaxslar aniq	Anonim yoki yarim anonim
Haqiqat va hislar	Faktual va real	Potensial va subyektiv
Aloqa tezligi	Sekinroq	Tez va real vaqt rejimida
Ijodkorlik	Kamroq imkoniyat	Yangi uslublar va vositalarga boy

Muloqotning turli shakllari va turlari uning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi va inson jamiyatining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar davomida "muloqot" tushunchasining turli ta'riflari keltirilgan bo'lsa-da, barchasida asosiy jihat insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etadi. Yangi texnologiyalar kiritilishi bilan "virtual muloqot" tushunchasi rivojlanib, an'anaviy muloqotdan farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Virtual muloqotda anonimlik, global qamrov va emotsional erkinlik kabi xususiyatlar mavjud bo'lib, u reallikdan farqli bo'lgan mozaik va potensial tabiati bilan ajralib turadi.

Virtual muloqot zamonaviy jamiyatda muhim o'rin tutadi. U insonlar orasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqib, bir qancha ijtimoiy afzalliklarni taqdim etadi:

- Ta'lim va ilmiy hamkorlik: Virtual platformalar orqali talabalar va o'qituvchilar orasidagi muloqot soddalashdi. Onlayn kurslar va ilmiy konferensiyalar global miqyosda amalga oshmoqda.

- Biznes va iqtisodiyot: Korxonalar virtual muloqot vositalari yordamida mijozlar bilan aloqa qiladi, masofaviy ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

- Ijtimoiy tenglik: Raqamli platformalar orqali imkoniyati cheklangan insonlar ham jamiyat bilan faol aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, virtual muloqot bir qator muammolarni ham keltirib chiqardi:

- Ijtimoiy yakkalanish: Odamlar real hayotdagi muloqotni kamaytirib, virtual aloqalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

- Xavfsizlik masalalari: Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor qilinishi va internetda firibgarlik xavfi oshmoqda.

- Ruhiy salomatlikka ta'sir: Muloqotning yuzaki va emotsional jihatlari stress va depressiya xavfini kuchaytirishi mumkin.

Virtual muloqot zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. U global qamrov, erkinlik va qulaylikni taqdim etsa-da, uning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini chuqur o'rganish lozim. Virtual muloqotning rivojlanishi, texnologiyalarning takomillashuvi bilan bir qatorda, uning madaniyat, jamiyat va inson ruhiyatiga ta'sirini boshqarish masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Shu sababli, muloqotning bu shaklini chuqur tadqiq qilish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Астафурова Т.Н. Лингвистические аспекты межкультурной деловой коммуникации – Волгоград, ВолГУ, 1997. – 108 с.
2. Harvey Sacks, Emanuel A. Schegloff, Gail Jefferson, (1974), "A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation", *Language*, vol. 50, no. 4, pp. 696–735.
3. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2002
4. G'oziyev E. Sotsial psixologiya. – T.: "Noshir", 2012
5. Леонтьев А. А. Психология общения. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Смысл, 1997. — 365 с.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – T.: "O'zbekiston nashriyoti", 2021
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002. — 477 с.
8. Моль А. Социодинамика культуры; пер. с фр., предисл. Б. В. Бирюкова. — 2-е изд., стер. — М.: КомКнига, 2005. — 416 с.

UO'K 811.512.133

O'ZBEK TILI UYADOSH SO'ZLARINI SEMANTIK MAYDON ASOSIDA TASNIFLASH

A. Musurmonqulov, o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tili leksikologiyasining sistemaviy jihatlariga semantik maydon asosida tasniflash, lug'aviy birliklarni semantik maydon doirasida o'rganish, tadqiq etish ko'zda tutilgan. So'zlararo ma'noviy munosabat turlariga ham to'xtalib o'tilib, bularning barchasini mazmuniy uyalarga jamlash nazarda tutilgan. Uyadosh so'zlar misolida semantik uyalarni shakllantirib, o'zbek tili uyadosh so'zlarining o'quv izohli lug'atini yaratish masalasiga urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *Semantik maydon, so'zlararo ma'noviy munosabat, lug'aviy birlik, uyadosh so'zlar, graduonimik qator, mazmuniy maydon, lug'atchilik.*

Аннотация. *В данной статье представлена классификация систематических аспектов лексикологии узбекского языка на основе семантического поля, изучение и исследование лексических единиц в рамках семантического поля. Упомянуты также типы межсловных духовных связей, и все их предполагается собрать в осмысленные гнезда. Акцент сделан на вопросе формирования смысловых гнезд на примере вложенных слов и создании учебного толкового словаря узбекских вложенных слов.*

Ключевые слова: *Семантическое поле, семантическая связь между словами, лексическая единица, вложенные слова, градуонимический ряд, смысловое поле, лексика.*

Abstract. *This article presents a classification of systematic aspects of the lexicology of the Uzbek language based on the semantic field, the study and research of lexical units within the semantic field. Types of interword spiritual connections are also mentioned, and all of them are supposed to be collected into meaningful nests. The emphasis is placed on the issue of forming semantic nests using the example of nested words and the creation of an educational explanatory dictionary of Uzbek nested words.*

Key words: *Semantic field, semantic connection between words, lexical unit, embedded words, gradonymic series, semantic field, vocabulary.*

Semantik maydon asosida keyingi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish 70-80-yillardan boshlangan deb hisoblanadi. Bu yo'nalish doirasidagi tadqiqotlar o'zbek tili leksikologiyasini keyinchalik tavsifiy bosqichdan nazariy bosqichga o'tishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek tili leksikologiyasining sistemaviy jihatlarini ochib berish ko'zda tutilgan bir qator tadqiqotlar keyinchalik maydonga kelgan. Jumladan, Qo'chqortoyev I. "O'zbek tilida nutq fe'llari semantikasi" (komponent va so'z valentligi bo'yicha tahlil), Rasulov R. "O'zbek tilida holat fe'llari va ularning obligator valentliklari", G'iyosov S. "O'zbek tilida asliy sifatlarning semantik strukturasi va komponent tahlili", Husainova Z. "O'zbek tilida to'y-marosim nomlarining onomasiologik tadqiqi", Mirzaqulov T. "O'zbek tilining morfem paradigmikasi va sintagmatikasi masalalari", Bozorov O. "O'zbek tilida darajalanish", Iskandarova Sh. "O'zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni), Rasulova M. "Lingvistikada leksik kategoriyalanish", Safarova R. "O'zbek tilida giponimiya" (faol qo'llaniladigan zoonimlar misolida), Ne'matova G.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI

№2/4 (123)
2025 y., fevral

O‘zbekcha matn muharriri:
Ruscha matn muharriri:
Inglizcha matn muharriri:
Musahhih:
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod
Hasanov Shodlik
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
O‘rozboyev Abdulla
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi
Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 06.02.2025
Bosishga ruxsat etildi: 14.02.2025.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.
Hajmi 13,4 b.t. Buyurtma: № 2-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18